

**MUTAXASSISLIK FANLARINI O'QITISHDA AMALIY MASHG'ULOTLARNI
TASHKIL ETISH****Umarjonova Nodira Abduxamid qizi***Stajor o'qituvchi**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Texnologik ta'lim metodikasi" kafedrasida Toshkent shahri*

Annotatsiya: *ushbu maqolda mutaxassislik fanlarini o'qitishda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi, uning mazmuni, amaliy mashg'ulotlarning o'ziga xosliklari hamda ta'lim sifatiga ta'siri haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *mutaxassislik fanlari, amaliy mashg'ulot, texnologik ta'lim, o'quv ustaxonasi.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-sonli qarorida o'qitishning zamonaviy shakllari va metodlarini, kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-laboratoriya anjomlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, oliy ta'lim muassasalarining zamonaviy ilmiy laboratoriyalarini tashkil etish va rivojlantirish choralari ko'rish eng muhim vazifalardan biri etib tayinlanganligi ta'lim jarayonida nazariy bilim bilan birgalikda amaliy bilimlarning ham ahamiyatini ko'rsatadi.

Amaliy mashg'ulot deganda, o'quvchilarning o'quv materialini faol, ongli va mustahkam o'zlashtirish maqsadida texnologiya o'qituvchisi rahbarligida amalga oshiriladigan ham jamoa ham yakka holdagi ish turlarini o'z ichiga oladigan o'quv mehnat faoliyatini aniq tashkil etishni tushunish kerak. Texnologik ta'limda amaliy mashg'ulotlar turli xilda bo'lishi, ya'ni yangi texnik-texnologik ma'lumotlarni mehnat operatsiyalarini o'rganishga, bilimlarni, mehnat ko'nikmalari va malakalarini mustahkamlashga, nazorat-texshirish ishlari, korxonalariga ekskursiyalar o'tkazish va hokazolarga bag'ishlangan mashg'ulotlar bo'lishi mumkin. Lekin o'quv ustaxonalarida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarning turlari xilma-xil bo'lishiga qaramasdan, ularning hammasi quyidagi umumiy talablarni qondirishi lozim:

* mashg'ulotning maqsadi hamda vazifalari aniq va ravshan ifodalangan bo'lishi lozim;

* mashg'ulotning tarkibini didaktik jihatdan ketm-ket (bilim, ko'nikma, malaka, mahorat) va o'quv materialining mazmuniga to'liq javob beradigan bo'lishi kerak;

* amaliy ishlarning obyekti to'g'ri tanlanishi, ijtimoiy foydali qiymatga ega bo'lishi va o'rganiladigan mehnat operatsiyalari va usullarining talablariga muvofiq kelishi zarur;

* mashg'ulotlarda foydalaniladigan texnologik ta'lim metodlari dars talablariga va o'quv materialining mazmuniga to'liq javob berishi lozim;

* o'quv ustaxonalarida mashg'ulotning tashkiliy-metodik tuzilishi o'quvchilar bilan jamoa va yakka holda ish olib borishni nazarda tutishi kerak;

* mehnat ta'limi bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda o'tkaziladigan ta'lim ishlari tarbiyaviy tavsifiga ega bo'lishi, ya'ni maktab o'quvchilarida qayta ko'rish ma'naviy sifatlarini tarkib topishiga yordam berishi lozim.

Texnologik ta'limda amaliy mashg'ulotlar turlarining xilma-xilligiga qaramasdan, ulardagi umumiy didaktik elementlarni ham ta'kidlab o'tish kerakki, bular o'quvchilarni navbatdagi o'quv materialini o'zlashtirish uchun jalb qilishga qaratilgan mashg'ulotlarni uyushtirish;

o'quvchilarning oldingi mashg'ulotlardan o'zlashtirgan bilimlari, mehnat ko'nikmalari va malakalarining darajasini tekshirish, yangi materialni tushuntirish va mehnat operatsiyalarini hamda amaliy ishlarni bajarish vaqtida mehnat usullarini ko'rsatib berish;

o'quvchilarning yangi mavzuga oid operatsiyalar va ishlarni bajarish vaqtida ularning bilimi, mehnat usullari darajasini aniqlash;

mehnat usullarini mashqlar bilan mustahkamlash va ularni dastlabki mehnat ko'nikmalari darajasiga yetkazish. Bunda texnologiya fani o'qituvchisining puxta nazorat qilishiga erishish, amaliy topshiriqning mustaqil bajarilishi va o'tgan mashg'ulotning natijalariga yakun yasashdan iborat.

Amaliy mashg'ulotlar o'qituvchi tomonidan boshqarilib, o'quvchilar tomonidan berilgan topshiriqlar ongli o'zlashtiriladi, mehnat faoliyati aniq tashkil etiladi. Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilar oldiga quyidagi maqsadlar qo'yiladi: o'quvchilarning o'quv materialini, o'zlashtirilgan bilimini, mehnat ko'nikmasini va malakalar darajasini tekshirish, yangi mavzuni tushuntirishda mehnat usullarini ko'rsatish, yangi mavzu bo'yicha o'quvchilarning bajaradigan ishlari va bilim darajasini aniqlash, o'quvchilarni o'z-o'zini nazorat qilishlari, amaliy ishlarni mustaqil bajarishlari hamda o'quvchilarni amaliy mashg'ulotlar natijalarini yaxshilashga qaratish va hokazo.

Amaliy laboratoriya ishlari o'zida mashg'ulotning shunday turini ifodalaydiki, unda rahbarligida mashg'ulot davomida tadqiqotlar, tajribalar, kuzatishlar olib boriladi. Maxsus asboblardan, uskunalardan, moslamalardan, apparatlar yordamida tajribalar o'tkaziladi hamda to'g'ri ilmiy xulosalar va umumlashmalar chiqarish imkoniyatlari o'rganiladi. Amaliy-laboratoriya mashg'ulotlari gazlamashunoslik bilimini o'rgatishda qo'llaniladi. Bunday mashg'ulotlarda gazlamaning xossalari: sitiluvchanlik, ishqalanuvchanlik, g'ijimlanishi, tolaviy tarkibini aniqlashda qo'llaniladi. Amaliy laboratoriya mashg'ulotlari o'tkazish uchun avvaldan tayyorlaniladi; uskunalardan, xona, tadqiqot obyektlari, topshiriq kartochkalari, hisobot uchun jadvallar shakllari tayyorlab olinadi. Amaliy laboratoriya ishlarini bajarish ko'rsatmasi bo'lishi, natijalar jamoa o'rtasida muhokama qilinib, baholanishi kerak. Amaliy laboratoriya ishlari o'quvchilarga faqat turli xil uskunalardan, asboblardan, moslamalardan bilan ishlashni o'rgatmay, balki o'lchovlar, kuzatishlar natijalarini ishlab chiqishni o'rganish hamda to'g'ri ilmiy xulosalar va umumlashmalar chiqarish imkonini beradi.

Yuqorida keltirilgan ta'riflar bilan bir qatorda amaliy mashg'ulotlarga quyidagicha ta'riflarni ham ko'rishimiz mumkin.

Amaliy mashg'ulotlar deb, malaka va ko'nikmani shakllantirish hamda rivojlantirishga nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llashga qaratilgan ta'lim usuliga aytiladi. Bu usul amaliy professional yo'nalishga ega texnik va texnologik fanlarni o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi.

Amaliy mashg'ulotlar:

- nazariy va amaliyot orasidagi bog'lovchi zveno;
- fan ichidagi va fanlararo bog'liqliklarning samarali vositasi;
- texnik va texnologik tafakkurni shakllantirish hamda rivojlantirishda zarur didaktik vosita;
- talabalarning belgilarga o'rgatilishi.

Amaliy mashg'ulotlar nazariy ta'limda ko'pincha topshiriqlarning turli tiplari-hisobiy-analitik, konstruktiv va boshqa shaklda ifodalanadi. Ko'pincha mavjud "an'anaviy" usullar va uslubiy ta'limda talabalar maksimum ma'lumotlarni, xususan darslik mazmunini o'zlashtiradilar. Ilmiy texnik progressga sabab bo'luvchi texnik va texnologik fanlarda nazariy va amaliy ma'lumotlar hajmining keskin ortib borishi bu maqsadga erishishni yanada qiyinlashtiradi. Bir qancha pedagog va psixologlar mavjud fikrlar o'zgartirilishi lozimligi haqida "agar texnik o'quv muassasasida talabalarga ma'lum hajmdagi ma'lumot shunchaki berilsa, bunday o'qitish usuli vaqt va vositalarni bekorga sarflash hisoblanadi", deyishadi. Bu fikrlarni rad etib bo'lmagani barobarida unga qo'shilmaslikning iloji yo'q. Bunga bog'liq bo'lgan holda texnik va texnologik fanlarni o'qitishda topshiriqlar rolini qayta ko'rib chiqish zaruriyati yuzaga keladi. Ma'lum ma'noda fanlar "topshiriq tamoyili", ya'ni talabalarga amaliy tavsifga ega muammoli masala yehtirish orqali o'rgatiladi.

Y.E.Chicherina, D.A.Nurkeldiyeva, D.B.Yakubjanovalarning "Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanmasida mutaxassislik fanlaridan amaliy mashg'ulotlarga quyidagicha ta'rif berilgan:

Laboratoriya (amaliy) mashg'ulotlar-o'quv fanining ilmiy-nazariy asoslarini bilib olish, ijodiy faoliyat ko'nikmasi va tajribasiga ega bo'lish, texnik vositalarni qo'llagan holda zamonaviy amaliy ishlash metodlarini o'zlashtirish maqsadida o'qituvchi nazorati ostida talabalar tomonidan o'quv topshiriqlari kompleksini bajarishni nazarda tutuvchi o'quv jarayonini tashkil etishning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi.

Laboratoriya (amaliy) mashg'ulotning maqsadi real amaliy faoliyat sharoitida talabalarning bilish faoliyatini tashkillashtirishdan iborat bo'lib, kirish, asosiy va yakuniy qismlardan tashkil topadi.

Kirish qismi talabalarning ish topshiriqlarini bajarishga tayyorgarlik ko'rishlarini ta'minlaydi. Uning tarkibiga: mavzu, maqsad va vazifalarni bayon etish, talabalarning kasbiy tayyorgarligida uning ahamiyatini asoslash, ushbu mavzuning kursdagi boshqa mavzular bilan bog'liqligini ko'rib chiqish, ishning nazariy asoslarini bayon etish, ish topshiriqlari tarkibi va o'ziga xosliklarini tavsiflash, ularni bajarishga yondashuv (metod. usullar) tushuntirish, ish natijalariga qo'yiladigan talablarni tavsiflash, talabalarning ishni boshlashga tayyorgarliklarini tekshirish, o'qituvchi nazorati ostida topshiriqlar namunasini bajarib ko'rish va shunga doir ko'rsatmalar berish kabilar kiradi.

Asosiy qism talabalarning topshiriqlarni mustaqil bajarishlarini nazarda tutadi. Ish jarayonida qo'shimcha tushuntirishlar, yuzagakelgan qiyinchiliklarni bartaraf etish, ish natijalarini joriy nazorat qilish va baholash, talabalar savollariga javob berish kabilar birgalikda amalga oshirilishi mumkin.

Yakuniy qism tarkibiga mashg'ulotning umumiy xulosasini (ijobiy, salbiy) chiqarish, ayrim talabalarning ish ko'rsatkichlarini yaxshilash va bilimlari, ko'nikma va malakalari tizimidagi bo'shliqlarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berish, bajarilgan ishlarni tekshirish

uchun talabalarning hisobotlarini to'plash, keying ishlarni bajarishga tayyorgarlik ko'rish, jumladan, o'rganilishi kerak bo'lgan o'quv adabiyotlari haqida ma'lumotlarni bayon etish kabilar kiradi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish, nafaqat nazariy bilimlar ko'lami balki, amaliy tajriba mashg'ulotlarini ham mukammallashtirish, talabalarni kreativlik va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga, ta'limning turli murakkab aspektlarini amaliyotda qo'llab ko'rish va yangi mulohazalarni kelib chiqishga yordam beradi.

Mutaxassilik fanlarini o'qitishda an'anaviy yondashuvdan voz kechish, mashg'ulotlarda yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan muntazam ravishda foydalanish, ilg'or tajribali mamlakatlar ta'lim jarayonini o'rganib, talabalarni ko'proq mustaqil ishlashga va nazariy bilimlarni mukammal ko'nikma va malakaga aylantirishga ko'makchi bo'ladigan amaliy mashg'ulotlar sifatini oshirish lozim. Bunda albatta bevosita dunyo tajribalarini o'rganish, ularni mukammallashtirgan va modernizatsiyalashtirgan holda amaliyotga tadbiiq etish, natijalarni ko'rib chiqish, tahlil qilish va umumiy xulosalarga tayangan holda yangi bosqich uchun mutlaqo yangi yondashuvdagi ta'lim jarayonini tashkil etish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-sonli qarori.
2. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qo'ysinov "Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash" T-2014 [188-189 b].
3. T.Atamuratova, X.Ergasheva, M.Qurbonov "Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi" T-2008 [108-109 b].
4. Z.K.Ismailova, P.M.Maxsudov, O.K.Ergashev, K.J.Matkarimov "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi". Toshkent-2018.